



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov *Salimov Oqil Umrzoqov*, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Ho'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIYIQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeviç	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI	268
A'zamxo'jayeva Nihol	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)	284
G.A. Norbo'tayeva	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	288
Charos G'ayratova	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
Джуманов, А.А.	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI	307
Xakimov Zafar Ibragimovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS	320
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	327
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
MHS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL.....	331
Davronbek Matyakubovich Matkarimov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI.....	336
Xasanova Yulduz Kayumovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	340
Saidqosimova Umida Ibragimovna	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN.....	345
Niyozov Zukhur	
Barnoyev Mirfayoz	
Yadgarov Avaz	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	349
Begzod Nishanov	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	356
Raxim Matniyazov	
Umar Asrayev	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	367
Зугурова Зилола Дамировна	



FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE IN ORGANIZING AND MANAGING SMALL INDUSTRIAL ZONES	371
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ	375
Гимранова О. Б.	
О'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar)	383
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	388
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVIORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI	393
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	



QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVIORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI

Urazmatov Jonibek Musurmanovich
Guliston davlat universiteti
Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası dotsenti, PhD
E-mail: jonibei1186@gmail.com
ORCID: 0009-0005-9468-5761

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat solig'ini undirish samaradorligini oshirish maqsadida soliq to'lovchilar xulq-atvorini institutsional va bixevioristik yondashuvlar integratsiyasi asosida modellashtirish masalasi o'rganiladi. Soliq to'lovchining rioya qilish xulq-atvori an'anaviy deterrence, ya'ni jazo qo'rquvi nazariyasi, institutsional iqtisodiyot va bixevioristik iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. O'zbekistonda QQS to'lovchilar bazasining tarkibiy xususiyatlari, rioya qilishdagi uzilish omillari hamda soliq ma'murchiligining motivatsion ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda soliq to'lovchilarni to'rt toifaga — to'liq rioya qiluvchilar, ehtiyotkor to'lovchilar, strategik optimallashtiruvchilar va qochuvchilarga ajratuvchi tasnif modeli ishlab chiqiladi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i zanjiriga ixtiyoriy integratsiyani rag'batlantirishning institutsional va bixevioristik mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: soliq rioyasi, bixevioristik iqtisodiyot, institutsional yondashuv, xulq-atvor modeli, QQS, soliq to'lovchi toifalari, ixtiyoriy integratsiya, nudge texnologiyasi.

Аннотация. В данной статье исследуется вопрос моделирования поведения налогоплательщиков в целях повышения эффективности взимания НДС на основе интеграции институционального и поведенческого подходов. Поведение налогоплательщиков в части соблюдения налогового законодательства анализируется с точки зрения традиционной теории сдерживания (deterrence), институциональной экономики и поведенческой экономики. Рассматриваются структурные особенности базы плательщиков НДС в Узбекистане, факторы разрывов в налоговом соблюдении, а также мотивационное воздействие налогового администрирования. В исследовании разработана классификационная модель, разделяющая налогоплательщиков на четыре категории: полностью соблюдающие требования, осторожные плательщики, стратегические оптимизаторы и уклонисты. Также предлагаются институциональные и поведенческие механизмы стимулирования добровольной интеграции в цепочку НДС.

Ключевые слова: налоговое соблюдение, поведенческая экономика, институциональный подход, модель поведения, НДС, категории налогоплательщиков, добровольная интеграция, nudge-технология.

Abstract. This article examines the modelling of taxpayer behaviour aimed at improving VAT collection efficiency through the integration of institutional and behavioural approaches. Taxpayer compliance behaviour is analysed from the perspectives of traditional deterrence theory, institutional economics, and behavioural economics. The study explores the structural characteristics of the VAT payer base in Uzbekistan, the factors causing compliance gaps, and the motivational impact of tax administration. The research develops a classification model that divides taxpayers into four categories: full compliers, cautious payers, strategic optimisers, and evaders. In addition, institutional and behavioural mechanisms for encouraging voluntary integration into the VAT chain are proposed.

Keywords: tax compliance, behavioural economics, institutional approach, behaviour model, VAT, taxpayer categories, voluntary integration, nudge technology.



KIRISH

Soliq to'lovchilarning rioya qilish xulq-atvori (tax compliance behaviour) soliq tizimi samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. An'anaviy iqtisodiy nazariyada soliq to'lovchi ratsional aktyor sifatida qaraladi: u jazo ehtimoli va miqdorini hisoblab, soliq to'lash yoki soliqdan qochish o'rtasida qaror qabul qiladi (Allingham va Sandmo, 1972). Biroq empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haqiqiy xulq-atvor ushbu soddalashtirilgan modeldan sezilarli darajada farq qiladi: ko'pchilik soliq to'lovchilar nazorat darajasi past bo'lgan sharoitda ham qonunga rioya qiladi, ayrimlari esa nazorat kuchli bo'lsa ham soliq majburiyatlarini to'liq bajarmaslikka moyil bo'ladi [1].

Bixevioristik iqtisodiyotning rivojlanishi — Kahneman va Tversky (1979) tomonidan ishlab chiqilgan istiqbol nazariyasi, Thaler va Sunstein (2008) ilgari surgan nudge konsepsiyasi, Deci va Ryan (2000)ning ichki motivatsiya nazariyasi — soliq rioyasini tushuntirish uchun yangi nazariy asos yaratdi. OECD (2010) soliq ma'murchiligi sohasida bixevioristik yondashuvlarni qo'llash bo'yicha maxsus yo'riqnoma ishlab chiqib, rioya qilish xulq-atvorini shakllantiruvchi institutsional va psixologik omillarni aniqlab berdi [2].

O'zbekistonda 2019-yildan boshlangan soliq islohotlari natijasida QQS to'lovchilar soni 6,8 mingdan 225 minggacha oshdi. Shu bilan birga, 5,54 mln.dan ortiq o'zini o'zi band qilgan shaxs va ko'plab yakka tartibdagi tadbirkorlar hali ham QQS zanjiriga to'liq integratsiyalashmagan. Mazkur holat sabablarini faqat iqtisodiy ratsionallik nuqtayi nazaridan izohlash yetarli emas, chunki soliq to'lovchilarning qaror qabul qilish jarayonida institutsional va bixevioristik omillar ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli QQS zanjiriga ixtiyoriy integratsiyani rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqishda soliq to'lovchilar xulq-atvorini kompleks modellashtirish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston sharoitida QQS to'lovchilar xulq-atvorini institutsional va bixevioristik yondashuvlar integratsiyasi asosida modellashtirish hamda QQS zanjiriga ixtiyoriy integratsiyani rag'batlantirishning amaliy mexanizmlarini taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq rioyasi nazariyasi Allingham va Sandmo (1972) ishlaridan boshlanadi. Ular soliq to'lovchining qaror qabul qilish jarayonini kutilayotgan foydani maksimallashtirish modeli orqali tushuntirgan [1]. Ushbu modelda jazo ehtimoli va uning miqdori asosiy deterrent omillar sifatida ko'rsatiladi. Biroq keyingi empirik tadqiqotlar mazkur modelning ayrim cheklovlarini aniqladi. Jumladan, Erard va Feinstein (1994) ichki motivatsiya va axloqiy omillar soliq rioyasi xulq-atvoriga jazo qo'rquvidan kam bo'lmagan darajada ta'sir ko'rsatishini asoslab berdi [3].

Bixevioristik yondashuv soliq rioyasini yangi nuqtayi nazardan izohlash imkonini beradi. Kahneman va Tversky (1979) tomonidan ishlab chiqilgan istiqbol nazariyasiga ko'ra, insonlar yo'qotishlarni daromadlarga nisbatan kuchliroq his etadi. Bu holat soliq solish jarayonida ham namoyon bo'ladi: soliqni to'lamaslik ayrim holatlarda "daromad", soliq to'lash esa "yo'qotish" sifatida qabul qilinishi mumkin [4]. Thaler va Sunstein (2008) ilgari surgan nudge konsepsiyasi esa xulq-atvorni majburlash orqali emas, balki tanlov arxitekturasini oqilona tashkil etish orqali boshqarish imkonini beradi [5].

Soliq rioyasini shakllantirishda ijtimoiy normalar va ishonch omillari ham muhim ahamiyatga ega. Wenzel (2004) ijtimoiy normalar, ya'ni "boshqalar soliq to'layaptimi?" degan tasavvur soliq to'lovchilarning rioya qilish xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishini eksperimental tadqiqotlar orqali asoslab bergan [6]. Frey va Feld (2002) esa soliq organlariga bo'lgan ishonch soliq rioyasini oshirishda faqat jazoga tayanishga qaraganda samaraliroq vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [7].

Niyazmetov (2023) QQS bo'shlig'ini baholab, rioya qilishdagi uzilishlarning muhim ulushini aniqlagan bo'lsa-da, xulq-atvor omillarini alohida model sifatida tahlil qilmagan [8]. Butayev (2025) kichik biznes subyektlarining soliq tizimiga munosabatini o'rganib, ma'muriy yuk va axborot yetishmasligini asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatgan [9]. Mazkur tadqiqot institutsional va bixevioristik yondashuvlarni integratsiyalash orqali O'zbekiston QQS to'lovchilari xulq-atvorini kompleks modellashtirishga qaratilgan dastlabki ilmiy urinishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda uch bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda soliq rioyasi nazariyalarining qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Bunda deterrence modeli, institutsional yondashuv va bixevioristik yondashuv o'zaro taqqoslanib, ularning O'zbekiston sharoitiga mosligi baholandi. Ikkinchi bosqichda O'zbekiston QQS to'lovchilari bazasining tarkibiy tahlili 2019–2025-yillar ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Xususan, to'lovchilar soni, aylanma taqsimoti va rioya qilish darajasi ko'rsatkichlari o'rganildi.



Uchinchi bosqichda soliq to'lovchilar xulq-atvorining tasnif modeli ishlab chiqildi. Model ikki o'lchamli matritsaga asoslanadi: birinchi o'lcham soliq to'lovchining iqtisodiy ratsionalligi darajasini, ya'ni past yoki yuqori darajani; ikkinchi o'lcham esa soliq me'yorlariga ichki munosabatini, ya'ni salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalaydi. Ushbu ikki o'lcham asosida shakllangan to'rt kvadrant soliq to'lovchilarning to'rtta xulq-atvor toifasini belgilaydi. Modelni empirik asoslashda mavjud ma'lumotlar tahlili hamda xalqaro tajribalar — Avstriya, Shvetsiya va Hindiston GVT amaliyoti bilan qiyoslash usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq rioyasi nazariyalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, uchta asosiy yondashuv O'zbekiston sharoitida turlicha amaliy ahamiyatga ega. Deterrence modeli 2019-yildan boshlab QQS zanjiriga majburiy tartibda o'tkazilgan yirik soliq to'lovchilar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu toifadagi soliq to'lovchilar, asosan, jazo qo'rquvi, nazorat ehtimoli va ma'muriy talablar ta'sirida soliq majburiyatlariga rioya qiladi.

Institutsional yondashuv o'rta biznes subyektlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu guruhda institutlar sifati, me'yoriy-huquqiy normalarning aniqligi, axborot olish imkoniyati, soliq organlariga bo'lgan ishonch va ma'muriy xizmatlar sifati soliq rioyasi xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Bixevioristik yondashuv esa kichik biznes subyektlari va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun ayniqsa dolzarbdir. Mazkur toifadagi soliq to'lovchilar ko'pincha faqat iqtisodiy ratsionallik asosida emas, balki odatlar, ijtimoiy normalar, soddalashtirilgan tanlov imkoniyatlari va tanlov arxitekturasi ta'sirida qaror qabul qiladi. Shu jihatdan, soliq rioyasini oshirishda majburiy choralar bilan bir qatorda motivatsion, axborotga asoslangan va xulq-atvorni rag'batlantiruvchi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval
Soliq rioyasi nazariyalarining O'zbekiston QQS sharoitiga mosligi¹

Nazariya	Asosiy omil	O'zbekiston uchun dolzarbligi	Asosiy kamchiligi
Deterrence modeli (Allingham–Sandmo)	Jazo ehtimoli va miqdori	Yirik to'lovchilar uchun muhim (2019-yildan majburiy o'tish)	Ichki motivatsiyani e'tiborsiz qoldiradi
Institutsional yondashuv	Normalar, ishonch, infratuzilma	O'rta biznes uchun muhim	Psixologik omillarni kamaytiradi
Bixevioristik yondashuv	Kognitiv noto'g'riliklar, nudge	Kichik biznes uchun eng dolzarb	Keng ko'lamda qo'llash qiyin
Integratsion model (mazkur taklif)	Barcha omillar majmui	Barcha toifalar uchun maqbul	Tatbiq etish murakkab

O'zbekistonda QQS to'lovchilar tarkibining tahlili. O'zbekistonda QQS to'lovchilar bazasini tarkibiy jihatdan tahlil qilish xulq-atvor modelini ishlab chiqish uchun muhim empirik asos yaratadi. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, 225 ming nafar QQS to'lovchining taqsimoti quyidagicha shakllangan: yirik yuridik shaxslar, ya'ni aylanmasi 10 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan subyektlar taxminan 8–10 foizni; o'rta yuridik shaxslar, ya'ni aylanmasi 1–10 mlrd so'm oralig'ida bo'lgan subyektlar taxminan 45–50 foizni; kichik yuridik shaxslar va chegaraga yaqin faoliyat yurituvchi YaTTlar esa taxminan 40–47 foizni tashkil etadi. QQS zanjiriga hali to'liq jalb etilmagan subyektlar tarkibida 5,54 mln nafar o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda ro'yxatdan o'tish salohiyatiga ega bo'lgan YaTTlar mavjud bo'lib, ular kelgusida soliq bazasini kengaytirish va rasmiy iqtisodiy faollikni oshirish uchun muhim zaxira hisoblanadi (2-jadval).

¹ Muallif tomonidan mavjud nazariyalar asosida tuzilgan.

2-jadval
O'zbekistonda QQS to'lovchilar va zanjirdan tashqaridagi subyektlar tarkibi (2025)²

Toifa	Soni	Ulushi	Rioya xarakteri	Asosiy motivatsiya
Yirik YuSh (>10 mlrd so'm)	~18–22 ming	~9%	Majburiy; to'liq	Tartibga rioya qilish va javobgarlikni hisobga olish
O'rta YuSh (1–10 mlrd so'm)	~100–112 ming	~48%	Asosan to'liq	Javobgarlik va me'yoriy talablar
Kichik YuSh/YaTT (chegaraga yaqin)	~93–105 ming	~43%	Qisman	Iqtisodiy manfaat va xarajatlarni optimallashtirish
Zanjirdan tashqari subyektlar (o'zini o'zi band qilganlar)	~5,54 mln	—	Hali to'liq shakllanmagan	Axborot, tanlov va rasmiylashtirish imkoniyati
Ro'yxatdan o'tish salohiyatiga ega YaTTlar	~200–400 ming	—	Hali to'liq shakllanmagan	Rasmiy faoliyatga o'tish imkoniyati

Soliq to'lovchilar xulq-atvori klassifikatsiya modeli. Tadqiqotda ishlab chiqilgan klassifikatsiya modeli soliq to'lovchilarni ikki o'lcham bo'yicha to'rt toifaga ajratadi (3-jadval). Birinchi o'lcham — iqtisodiy ratsionallik bo'lib, u subyektning soliq to'lash bilan bog'liq iqtisodiy foyda va xarajatlarni qanchalik ongli baholashini ifodalaydi. Ikkinchi o'lcham — me'yoriy munosabat bo'lib, subyektning soliq to'lash majburiyatiga axloqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan yondashuvini aks ettiradi (3-jadval).

3-jadval
QQS to'lovchilar xulq-atvori klassifikatsiya modeli (2×2 matritsa)³

	Me'yoriy munosabat: ijobiy	Me'yoriy munosabat: salbiy
Ratsionallik: yuqori	I toifa: to'liq rioya qiluvchilar Ongli va ixtiyoriy ravishda to'laydi; soliqni ijtimoiy majburiyat deb biladi; davlat xizmatlariga ishonadi. ~20–25% (yirik va o'rta YuSh)	II toifa: strategik optimallashtiruvchilar Soliq yukini qonuniy minimallashtirishga intiladi; imtiyoz va mavjud imkoniyatlardan foydalanadi; xavf va foydani hisobga olgan holda harakat qiladi. ~15–20% (o'rta biznes)
Ratsionallik: past	III toifa: ehtiyotkor to'lovchilar To'lashga moyil, biroq tizim murakkabligi, axborot yetishmasligi va xato qilish ehtimoli sababli soddaroq yo'lni tanlaydi. ~25–35% (kichik biznes, yangi YaTT)	IV toifa: rasmiylashtirish salohiyatiga ega subyektlar Soliq tizimiga to'liq jalb etilmagan; nazorat va majburiyatlar bo'yicha xabardorlik darajasi past; rasmiy faoliyatga o'tish imkoniyati mavjud. ~25–35% (zanjirdan tashqaridagi subyektlar)

Har bir toifa uchun differensial mexanizmlar. Klassifikatsiya modeli har bir toifa uchun turlicha ta'sir mexanizmlarini qo'llashni talab qiladi. I toifa — to'liq rioya qiluvchilar uchun asosiy vazifa ularning davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchini saqlab qolish hamda ma'muriy yukni minimallashtirishdan iborat. Soddalashtirilgan hisobot, onlayn xizmatlar va ijobiy qayta aloqa, masalan, "siz to'lagan soliq hisobidan ushbu maktab qurildi" kabi axborot berish mexanizmlari motivatsiyani kuchaytiradi. II toifa — strategik optimallashtiruvchilar uchun qonuniy imtiyozlar va texnik yordam kanallarini kuchaytirish, shu bilan birga mavjud tartiblarni yanada aniqlashtirish zarur. III toifa — ehtiyotkor to'lovchilar uchun eng samarali vositalardan biri nudge texnologiyalaridir. Oldindan to'ldirilgan QQS hisoboti, kalkulyatorlar va qadam-baqadam yo'riqnomalar ularning rioya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. IV toifa — rasmiylashtirish salohiyatiga ega subyektlar uchun esa nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, AI asosidagi xavfni baholash tizimidan foydalanish hamda institutsional ishonchni mustahkamlash choralarini birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan klassifikatsiya modeli O'zbekiston sharoitida QQS to'lovchilar xulq-atvorini tushuntirishda muhim analitik vosita hisoblanadi. Modelning asosiy xulosasi shundan iboratki, QQS zanjiriga ixtiyoriy integratsiyani oshirishda yagona universal mexanizm yetarli emas. Har bir toifa uchun maqsadli va differensial yondashuv zarur.

² Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari va ekspert baholashlari asosida hisoblangan.

³ Allingham–Sandmo (1972), Wenzel (2004), OECD (2010) va muallif ishlanmasi.



III toifa — ehtiyotkor to'lovchilar bu kontekstda alohida ahamiyatga ega. Ular soliq majburiyatlarini bajarishga moyil, biroq tizim murakkabligi, axborot yetishmasligi va xato qilish ehtimoli ularning faol ishtirokini cheklaydi. Dissertatsiyaning 3.1-bo'limida taklif etilgan ixtiyoriy o'tish mexanizmi aynan ushbu toifaga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Soddalashtirilgan tartib, aniq yo'riqnoma, kalkulyator va birinchi yil uchun maslahat xizmati ularning rioya to'siqlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu toifaning 20–30 foizi ixtiyoriy o'tish imkoniyatidan foydalanishi mumkin. Bu esa 50–90 mingga yaqin yangi QQS to'lovchi shakllanishini anglatadi.

IV toifa — rasmiylashish salohiyatiga ega subyektlar uchun AI asosidagi xavfni baholash tizimining 2026-yildan boshlab joriy etilishi muhim omil bo'lishi mumkin. Ushbu toifada nazorat ehtimoli va majburiyatlar bo'yicha xabardorlik darajasi nisbatan past bo'lishi mumkin. AI tizimi esa xavfli holatlarni aniqlash imkoniyatini oshirib, nazorat jarayonining obyektivligi va manzilliligini kuchaytiradi. Biroq faqat nazorat choralari o'zi yetarli emas. Institutsional ishonch, ya'ni davlat tomonidan to'plangan soliq mablag'larining samarali va shaffof sarflanishini ko'rsatish ham ushbu subyektlar xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Soliq to'lovchilar xulq-atvori faqat iqtisodiy ratsionallik bilan emas, balki institutsional me'yorlar, ijtimoiy normalar va bixevioristik omillar bilan ham belgilanadi. Ushbu uch yondashuvning integratsiyasi O'zbekiston sharoitida eng maqbul tahliliy asos hisoblanadi.

O'zbekistonda QQS to'lovchilar bazasi to'rt xulq-atvor toifasiga bo'linadi: to'liq rioya qiluvchilar (~20–25%), strategik optimallashtiruvchilar (~15–20%), ehtiyotkor to'lovchilar (~25–35%) va rasmiylashish salohiyatiga ega subyektlar (~25–35%). Har bir toifa uchun differensial mexanizmni qo'llash zarur.

Ehtiyotkor to'lovchilar — taxminan 55–70 ming subyekt — ixtiyoriy integratsiyaning asosiy maqsadli guruhi hisoblanadi. Ular uchun nudge texnologiyalari, jumladan, oldindan to'ldirilgan hisobot, kalkulyator va sodda yo'riqnomalar eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Rasmiylashish salohiyatiga ega subyektlar uchun AI asosidagi xavfni baholash tizimi nazorat jarayonining manzilliligi va samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, uzoq muddatda institutsional ishonchni mustahkamlash barqarorroq natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Ixtiyoriy integratsiya mexanizmi, ya'ni dissertatsiyaning 2-ilmiy yangiligi, III toifa uchun eng katta ta'sir ko'rsatadi va ehtiyotkor to'lovchilarning 20–30 foizini QQS zanjiriga jalb etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Allingham M.G., Sandmo A. Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis // Journal of Public Economics. — 1972. — Vol. 1, No. 3–4. — P. 323–338.
- [2] OECD. Understanding and Influencing Taxpayers' Compliance Behaviour. — Paris: OECD Publishing, 2010.
- [3] Erard B., Feinstein J.S. Honesty and Evasion in the Tax Compliance Game // RAND Journal of Economics. — 1994. — Vol. 25, No. 1. — P. 1–19.
- [4] Kahneman D., Tversky A. Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk // Econometrica. — 1979. — Vol. 47, No. 2. — P. 263–291.
- [5] Thaler R.H., Sunstein C.R. Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness. — New Haven: Yale University Press, 2008.
- [6] Wenzel M. The Social Side of Sanctions: Personal and Social Norms as Moderators of Deterrence // Law and Human Behavior. — 2004. — Vol. 28, No. 5. — P. 547–567.
- [7] Frey B.S., Feld L.P. Deterrence and Tax Morale in the European Union // European Review. — 2002. — Vol. 10, No. 3. — P. 381–392.
- [8] Niyazmetov I.M. Estimating Value Added Tax Gap in Uzbekistan // Finance: Theory and Practice. — 2023. — Vol. 27, No. 5. — P. 58–71.
- [9] Butayev B.J. Soliq tizimini modernizatsiya qilish sharoitida QQS ma'murchiligini takomillashtirish // European Journal of Research Development and Sustainability. — 2025. — Vol. 6, No. 8.
- [10] Keen M., Smith S. VAT Fraud and Evasion: What Do We Know and What Can Be Done? // National Tax Journal. — 2006. — Vol. 59, No. 4. — P. 861–887.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>